**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI**
**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**«TASDIQLAYMAN»**
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_____________ **M.Ibragimov**
«____» _______________ 2025-yil

# O‘ZBEK FOLKLORI

**FANI BO‘YICHA**

# SILLABUS

**Kunduzgi bo‘lim, 1-kurs uchun**

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta’lim |
| Ta’lim sohasi: | 110000 – Ta’lim |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti |

**Nukus – 2025**

**Modul / FAN SILLABUSI**
**Turkiy tillar fakulteti**
**60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti**
**ta’lim yo‘nalishi**

| | |
|---|---|
| **Fan nomi:** | O‘zbek folklori |
| **Fan turi:** | Majburiy |
| **Fan kodi:** | O‘F1104 |
| **Yil:** | 1 |
| **Semestr:** | 1 |
| **Ta’lim shakli:** | Kunduzgi |
| **Mashg‘ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:** | 120 |
| **Ma’ruza:** | 20 |
| **Amaliy mashg‘ulot:** | 28 |
| **Mustaqil ta’lim:** | 72 |
| **Kredit miqdori:** | 4 |
| **Baholash shakli:** | Imtihon |
| **Ta’lim tili:** | O‘zbek |

| **Fan maqsadi (FM)** | |
|---|---|
| **FM1** | Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga xalq og‘zaki ijodi namunalarining sinkretik san’at sifatida xalq ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutishini, unda o‘zbek xalqining asrlar davomidagi ijtimoiy, maishiy, madaniy hayoti o‘zining badiiy ifodasini topganini, xalqning o‘z vatani uchun iftixor tuyg‘usi aynan og‘zaki ijod zaminida tashkil etishi ko‘nikmalarini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Mazkur fan asoslarini o‘zlashtirish “Xalqning boy intelektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim sharti” ekanligi bilan belgilanadi. |

| **Fanni o‘zlashtirish uchun zarur boshlang‘ich bilimlar** | |
|---|---|
| **1** | Adabiyotshunoslik asoslari (AA1105) |
| **2** | O‘zbek adabiyoti (O‘A1204) |

| **Ta’lim natijalari** | |
|---|---|
| | ***Bilimlar jihatidan*** |
| **TN1** | “O‘zbek folklori” doirasida talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, xalq og‘zaki ijodining sinkretik san’at ekanligini, boshqa san’at turlaridan farqli jihatlarini ko‘rsatib berish, O‘zbek folklorining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng xalq og‘zaki ijodi davlat maqomiga erishganligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish; (bilim) |
| | ***Ko‘nikmalar jihatidan*** |
| **TN2** | “O‘zbek folklori” fani doirasida talaba xalq og‘zaki ijodi janrlari va ularning xususiyatlarini aniqlashi, janrlararo munosabat mezonlarini belgilashi, folklor va adabiyot munosabati haqida tushuncha hosil qilishi (ko‘nikma) |
| **TN3** | “O‘zbek folklori” kursini o‘zlashtirgan talaba xalq og‘zaki ijodi namunalari sinkretik san’at sifatida xalq hayotida muhim o‘rin tutishini, unda o‘zbek xalqining asrlar davomidagi ijtimoiy, maishiy, madaniy hayoti o‘zining badiiy ifodasini topganini, xalqning o‘z vatani uchun iftixor tuyg‘usi aynan og‘zaki ijod zaminida tashkil etishi ko‘nikmalarini shakllantirish; |

| | |
|---|---|
| | ***Malakalar jihatidan*** |
| **TN4** | Talabalar o‘zbek xalq og‘zaki ijodining jahon folklori merosida munosib o‘rin egallashini anglashi va mazkur ta’sir haqida o‘zining tahliliy, tanqidiy mulohazalarini bayon eta bilish malakasiga ega bo‘lishi lozim. |

| **Fan mazmuni:** | |
|---|---|
| **Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)** | |
| **M1** | **Mustaqillik davrida “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”ni o‘rganishning yetakchi masalalari. Folklor ma’naviy tarbiyaning poydevori. Xalq og‘zaki ijodi so‘z san'ati sifatida.** Folklorning so‘z san’atiga aloqasi va san’at inson tafakkur salohiyatining natijasi ekanligi o‘rganiladi. Mahorat va fikriy kashfiyot san’atning muhim belgilaridan biri xususida so‘z boradi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari mahorat, aqliy fikriy kashfiyot namunalarining badiiy ifodasi sifatida tahlil qilinadi. |
| **M2** | **Mif va uning badiiy talqinlari. Afsona, rivoyat, naqllarning o‘ziga xos va farqli xususiyatlari, badiiyati.** Mif tushunchasi izohlanib, uning xalq og‘zaki ijodi asarlari tarkibiga badiiy estetik holatda o‘tish jarayoni o‘rganiladi. Mifoligik tafakkurning badiiy estetik tafakkurga o‘tish bosqichlari afsona, rivoyat, naql, epos, ertak, qo‘shiq misolida ochib beriladi. Afsona, rivoyat, naql atamalari haqida ma’lumot. Ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlari. Afsona va rivoyatlar tasnifi. Osmon yoritgichlari, tog‘, daraxt, suv, olov va hayvonlar bilan bog‘liq afsona va rivoyatlar tahlil etiladi. To‘maris va Shiroq rivoyatlari asosida Vatan mavzusi yoritiladi. |
| **M3** | **Mavsumiy va oilaviy marosim folklori namunalari va ularning badiiyati.** Mavsumiy marosim folklorida so‘z magiyasining badiiy estetik sathga o‘tishi va boshqa masalalar yoritiladi. Xalqona taqvimlar, Navro‘z, va Shoh moylar, Sust xotin, Choy momo, Loy tutish kabi marosimlarning verbal tizimi tahlil etiladi.<br>Oilaviy marosim janrlari yor-yor, kelin salom o‘lan va boshqa namunalarning badiiyati, ma’no qatlamlari ko‘rsatiladi. Ushbu marosim janrlarining obrazlar tizimi, she’riy tuzilishi ohang yo‘llari tahlil etiladi, o‘ziga xos jihatlari yoritiladi. |
| **M4** | **Xalq dostonlari.** Doston janri haqida ma’lumot. Doston – xalq og‘zaki ijodining sinkretik janri sifatida. Dostonda badiiy matn (nazm va nasr) va musiqaning o‘rni. Xalq baxshilar, dostonchilik maktablari haqida ma’lumot. Xalq dostonlarining ijro an’anasiga ko‘ra (Samarqand, Xorazm, Farg‘ona) turlari. Dostonlarning tasnifi (qahramonlik, romanik, tarixiy, kitobiy, jangnoma dostonlari) haqida ma’lumot. Xalq dostonlarida turkumlik. |
| **M5** | **Qahramonlik eposi.[1] Qahramonlik va romanik dostonlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.** “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlari g‘oyaviy-badiiy sathda o‘rganiladi. Epos va etnos masalasi ko‘rib chiqiladi. Dostonlardagi yetakchi qahramonlar genezisi tadrijiy bosqichlari yoritiladi. Asosiy motivlarning syujet ko‘lamidagi o‘rni o‘rganiladi. Dostondagi epik qoliplar, an’anaviy she’riy takrorlarning badiiyati keng yoritib beriladi. “Ravshan”, “Qunduz va Yulduz”, “Kuntug‘mish”, “Malika ayyor” “Orzigul” kabi dostonlar poetikasi tahlili orqali romanik dostonlarga xos-xususiyat va belgilari ochiladi. Romanik dostonlarning yetakchi motivlari, ularning qahramonlari, syujet tiplari, badiiy tasviriy vositalari, g‘oyaviy qatlamlari tahlil qilinadi. |
| **M6** | **Xalq ertaklari.[2]** Ertak xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy ommaviy janrlaridan biri ekani. Ertak janrini anglatuvchi atamalar. Ertakda xalq hayoti, orzu-istaklari, psixologik dunyosining aks etishi. Xalq ertaklarining janr xususiyatlari. Ertaklarning mazmuniga ko‘ra tasnifi.<br>**A) Hayvonlar haqidagi ertaklar**. Hayvonlar haqidagi ertaklar genezisi, ularning |

[1] **Әл-Фараби атындағы Қазақ ұлттық университеті**
[2] **Әл-Фараби атындағы Қазақ ұлттық университеті**

| | |
|---|---|
| | mifologik va mavsumiy marosimlar bilan aloqasi, badiiy ramz va timsollari haqida so‘z boradi. “Susambil”, “Tuxum bilan buyrak”, “Qirq quloq”, “Ovchi ko‘kcha va dono”, “Bo‘ri bilan tulki” kabi ertaklar tahlili vositasida nazariy fikrlar dalillanadi.<br>**B) Sehrli fantastik ertaklar va ularning talqinlari, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.** Sehrli fantastik ertaklar mag‘zidagi xalq falsafiy dunyoqarashi va uning badiiy talqinlari, ramz va timsollari ochiladi. “Kulsa gul, yig‘lasa dur”, “Ur to‘qmoq”, “Ahmadlar”, “Gungula”, “Dunyoda yo‘q hunar” kabi ertasklar tahlili orqali sehrli-fantastik ertaklarning badiiyati, g‘oyaviy mazmuni ko‘rib chiqiladi.<br>**V) Hayotiy-maishiy ertaklar**. Hayotiy-maishiy ertaklarda ijtimoiy hayot muammolari ifodasi. Ularda do‘stlik’ mardlik’ zakiylik, insonparvarlik kabi shaxs fazilatlarining ulug‘lanishi. “Uch ko‘r va bir yigit”, “Egri va to‘g‘ri”, “Uch og‘ayni botirlar” kabi hayotiy-maishiy ertaklarning badiiy qimmati, g‘oyaviy ko‘lami yoritiladi. Hayotiy-maishiy ertaklarga xos syujet tiplari, yetakchi motivlar, asosiy qahramonlar o‘rganiladi. |
| **M7** | **Mehnat qo‘shiqlari va termalar.** Mehnat qo‘shiqlarining folklor san’atidagi o‘rni ochiladi. Qo‘shiqlarning mehnat turlariga ko‘ra farqlanishi, mehnat jarayoni va ibtidoda turli marosimlar bilan bog‘liq jihatlari ko‘rsatiladi. Mehnat qo‘shiqlari tarkibiga kirgan lirik xarakterdagi namunalar, xususan, “Yoz qo‘shiqlari” va boshqa misollar keng talqin etiladi. Terma janrining xalq epik ijodidagi o‘rni , mavzu doirasi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari ko‘rsatiladi. Xalq termalarining baxshi-shoirlar ijodidagi epik asarlar ijro jarayonidagi vazifalari tahlil etiladi. An’anaviy va individual termalar qiyosan o‘rganiladi. Bolalar folklori xalq og‘zaki ijodining muhim tarkibiy qismi sifatida. Bolalar ertaklari va qo‘shiqlari misolida xalqning qadimiy dunyoqarashlari, marosimlarimizning badiiy ko‘rinishda saqlanib kelayotgani va so‘z san’atining o‘ziga xos muhim bosqichi sifatida namoyon bo‘lishi tahlil etiladi. Bolalar qo‘shiqlarining tasnifi, o‘yin va qo‘shiq hamda boshqa masalalar batafsil yoritiladi. |
| **M8** | **Lirik qo‘shiqlar.**[3] Lirik qo‘shiqlarga xos-xususiyatlar, ularning ijro o‘rni, ohang yo‘llari, an’anaviy takrorlari, qo‘shiqlarda parallelizm, vazn, qofiya, badiiy til masalalari, mavzu turlari o‘rganiladi. Lirik qo‘shiqlarda ramz va timsollarning vazifalari ko‘rsatiladi. Qo‘shiqlarning janr xususiyatlari, asosiy xossalari o‘rganiladi, ularning inson qalb kechinmalari tarjimoni ekanligi ta’kidlanadi. |
| **M9** | **Xalq maqollari va topishmoqlar.** Paremiologiya haqida ma’lumot. Maqol va uning janr xususiyatlari. Maqollarning badiiyati, obrazlilik, o‘z va ko‘chma ma’nolari. Xalq maqollarining tasnifi, semantik ko‘lami, ularning boshqa parmeologik janrlardan farqli jihatlari, janriy xususiyatlari ko‘rsatiladi. Topishmoqlarda narsa va hodisalarning obrazlar vositasida yashirinib kelishi, ularning til imkoniyatlarini ochuvchi, inson aqlini charxlovchi o‘ziga xos janr ekanligi yoritiladi.<br>Topishmoq – paremik janr sifatida. Topishmoqlarning ma’rifiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati. Topishmoqlarning janr xususiyatlari. Topishmoq poetikasi (timsollar olami, syujet va kompozitsion jihatlar). Topishmoq va chiston, muammo, tarix. An’anaviy topishmoqlarda xalq hayotining aks etishi. Topishmoqlarning badiiy xususiyatlari. |
| **M10** | **Askiya. Latifa va loflar.** Askiya san’atining noyob folklor janri ekanligi, o‘ziga xos belgilari. Askiya – o‘zbek xalqining milliy merosi sifatida. Askiyaning payrov, gulmisiz, o‘xshatdim va boshqa turlari. So‘z o‘yinlarining askiyadagi ahamiyati. Askiyachilar haqida ma’lumot. Askiyachi ijodida omonim so‘zlardan foydalanish mahorati. Askiyalarning turlari, aksiyachilar haqida ma’lumot.<br>Latifa xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan kichik nasriy janri sifatida. Latifalarning janr xususiyatlari va badiiy qatlam ma’nolari ochiladi. Ularning kompozitsion jihati, til xususiyatlari, zamonaviy latifalarning ijtimoiy mazmuni |

[3] **Әл-Фараби атындағы Қазақ ұлттық университеті**

| | |
|---|---|
| | yoritiladi. Nasriddin Afandi obrazining genezisi va unga yondosh Ovul Patta, Jiyron Chechan kabi qahramonlar bilan bog‘liq jihatlari ko‘rsatiladi.<br>Loflardagi mubolag‘a o‘rni va badiiy vazifalari tahlil etiladi. Loflar – aksiyaga yaqin turuvchi janr sifatida. Mubolag‘a va uning turlari haqida ma’lumot. |
| | **Mashg‘ulotlar shakli: amaliy mashg‘ulot (A)** |
| **A1** | Mustaqillik va xalq og‘zaki ijodi. Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos belgilari. Mif, afsona, rivoyatlarning janr xususiyatlari |
| **A2** | Navro‘z bayrami an’analari. Oilaviy marosimlar tadriji |
| **A3** | Xalq dostonlari va ularning turlari. Baxshilik san’ati, dostonchilik maktablari |
| **A4** | „Alpomish“ dostoni talqinlari |
| **A5** | „Go‘ro‘g‘li“ turkumi dostonlari tahlili |
| **A6** | „Kuntug‘mish“ dostoni tahlili |
| **A7** | „Malikai ayyor“dostoni tahlili |
| **A8** | O‘zbek milliy ertaklari va jahon xalq ertaklari mushtarakligi. Xalq erataklarida timsollar talqini. O‘zbek milliy madaniyatini ifodalovchi ertaklarning nazariy va amaliy xususiyatlari. |
| **A9** | Xalq qo‘shiqlari. Mehnat qo‘shiqlari namunalarining qiyosiy tahlili. |
| **A10** | Bolalar qo‘shiqlari va ertaklar tahlili. Alla qo‘shiqlari. |
| **A11** | Qo‘shiqlarning janriy xususiyatlari va adabiy jarayonda o‘rganilishi. |
| **A12** | Lirik qo‘shiqlar. “Yor-yor” va “Kelin salomlar”. |
| **A13** | Xalq maqollari va topishmoqlar talqini. Latifa va loflarning qiyosiy talqinlari. |
| **A14** | Askiya – so‘z san’ati turi. Aksiya janrining xorij folklorshunosligidagi nazariy xususiyatlari. Tomosha san’ati janrlari tahlili. |
| | **Jami: 28 soat** |

| **Mustaqil ta’lim (MT)** | **Soat** |
|---|---|
| Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish | 15 soat |
| Tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalarni o‘zlashtirish – tarqatma materiallar tuzish | 15 soat |
| Talabaning o‘quv va ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq holda mavzularni chuqur o‘rganishi – glossariy tayyorlash | 15 soat |
| Masofaviy (distansion) ta’lim – esse, ya’ni mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini ilmiy-ommabop, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish; | 15 soat |
| Faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalanadigan o‘quv topshiriqlari – multimediali taqdimotlar yaratish | 12 soat |


| **Asosiy adabiyotlar** | |
|---|---|
| 1 | Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. |
| 2 | Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo‘rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O‘zbek folklori. Darslik. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2020. |
| 3 | Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2009. |
| **Tavsiya qilinadigan qo‘shimcha adabiyotlar** | |
| 1 | Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. |
| 2 | Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (Халқ сўзи 2017 йил, 8 феврал). |
| 3 | Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. |
| 4 | Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. |
| 5 | Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини |

| | |
|---|---|
| | янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида (Халқ сўзи, 2017 йил, 21 апрель). |
| 6 | Abdulla Qodiriy va folklor. O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent. № 3, 2014 |
| 7 | Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Ленинград: Наука, 1974 |
| 8 | Jo‘rayev M., Narziqulova M. Mif, folklor, adabiyot. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi o‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. |
| 9 | Jo‘rayeva M. O‘zbek folklorida topishmoq (monografiya). – Toshkent: Fan, 2012. |
| 10 | Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki prozasi. – Toshkent: Fan, 1981 |
| 11 | Kuntug‘mish. – Toshkent, 1976 |
| 12 | Latifalar. – Toshkent, 1971 |
| 13 | Madayev O. Alpomish bilan suhbat. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. |
| 14 | Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. (Nazariy kurs matni). – Toshkent: 1999. |
| 15 | Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан. – 410 с. |
| 16 | Mirzayev T., Eshonqulov J., Fidokor S. “Alpomish” dostonining izohli lug‘ati. – Toshkent: Elmus-Press-media, 2007. |
| 17 | Mirzayev T. Hodi Zarif suhbatlari. – Toshkent: SHAMS ASA, 2013 |
| 18 | Mirzayev T. Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton. So‘ngso‘z, lug‘at, nashrga tayyorlash. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2013. |
| 19 | Oq olma, qizil olma. Qo‘shiqlar. – Toshkent, 1972. |
| 20 | Ravshan dostoni. – Toshkent, 1975. |
| 21 | Sobitova T. Xalq ijodi saboqlari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011. |
| 22 | Topishmoqlar. – Toshkent, 1983. |
| 23 | Turdimov Sh. Go‘ro‘g‘li dostonining genezisi va tadrijiy bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2011. |
| 24 | Turdimov Sh. Navro‘z qo‘shiqlari (tadqiqot majmua). – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. |
| 25 | Turdimov Sh. Etnos va epos. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. |
| 26 | Turdimov Sh. Hikmat xazinasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. |
| 27 | Shukurova Z. Rabg‘uziy va folklor. – Toshkent: Tamaddun, 2015. |
| 28 | Ergashev\ A. Qashqadaryo-Surxandaryo dostonchiligi. – Toshkent: Fan, 2008. |
| 29 | Eshonqulov J. Navro‘z qo‘shiqlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. (hammualliflikda) |
| 30 | Eshonqulov J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006. |
| 31 | Eshonqulov J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: Fan, 2012. |
| 32 | O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. – Toshkent: Fan, 2010. |
| 33 | O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent, 1988. |
| 34 | O‘zbek xalq og‘zaki ijodi (O‘UM). – Toshkent: O‘zMU, 2011. O‘zbek filologiyasi fakulteti kutubxonasi. |
| 35 | O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent, 2007. |
| 36 | O‘zbek xalq og‘zaki ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. 1-8-jildlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015, 2016. |
| 37 | Oysuluv. Doston. Nashrga tayyorlovchi A.Tilavov. – Toshkent: Sano-standart, 2015. |
| 38 | Tilavov A. Quvnoq topishmoqlar. – Toshkent: Yurist-media markazi, 2015. |
| 39 | Ғабдуллин М. Қазақ халқының ауыз әдебиеті. – Алматы, 2016. |
| 40 | Қасқабасов С. Ойөріс. –Алматы: Жібек жолы, 2009 |


**Axborot manbalari**


1. lectures.ndpi.uz>lektions
2. news.uzreport.uz>news_9_ul36022
3. www.folklore.ru.
4. www.folksentr.ru
5. folklore.tomsk.ru
6. www.ruthenia.ru>folklore

7. http://book.uz – Elektron adabiyotlar kutubxonasi
8. http://translate.google.co.uz – Google –tarjimon sayti
9. http://arxiv.uz – Referatlar arxivi
10. http://txt.uz – Elektron kutubxona

**Talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:**

**a) 5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berish lozim:**

- fanning mohiyati va mazmunini to‘liq yorita olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo‘l qo‘ymasa;
- fan bo‘yicha mavzu materiallarining nazariy va amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo‘lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo‘nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo‘lsa;
- mustaqil topshiriqlarni aniq va puxta bajargan bo‘lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarni to‘liq o‘zlashtirgan bo‘lsa;
- fanga tegishli mavzulardan biri bo‘yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo‘lsa;
- tarixiy jarayonlarni sharhlay bilsa;

**b) 4 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berish lozim:**

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo‘l qo‘ymasa;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo‘lsa;
- fan bo‘yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o‘quv dasturi doirasida bajarsa;
- fan bo‘yicha berilgan savollarga to‘g‘ri javob bera olsa;
- fan bo‘yicha konspektni puxta shakllantirgan bo‘lsa
- fan bo‘yicha mustaqil topshiriqlarni to‘liq bajargan bo‘lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlarni o‘zlashtirgan bo‘lsa.

**v) 3 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berish lozim:**

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashlikka yo‘l qo‘yilsa;
- bayon qilish ravon bo‘lmasa;
- fan bo‘yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo‘yicha matn puxta shakllantirilmagan bo‘lsa.
-

**g) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:**

- fan bo‘yicha mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rilmagan bo‘lsa;
- fan bo‘yicha mashg‘ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo‘lmasa;
- fan bo‘yicha matnlarni boshqalardan ko‘chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo‘yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.

**Modul / Fan o‘qituvchisi to‘g‘risida ma’lumot**

| | |
|---|---|
| **Muallif:** | Bekchanova Sayyora Bazarbaevna, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent |
| **E-mail:** | *sayyara1974@mail.ru* |
| **Tashkilot:** | Nukus davlat pedagogika isntituti, O‘zbek adabiyoti kafedrasi |
| **Taqrizchilar:** | Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent H.Allambergenov,<br>Filologiya fanlari nomzodi, dotsent I.Qurbonboyev. |

Mazkur sillabus Nukus davlat pedagogika instituti o‘quv-uslubiy Kengashining 2025 - yil ________________dagi ______ - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur sillabus O‘zbek adabiyoti kafedrasining 2025 - yil ____ - __________ dagi ___ - sonli bayonnoma bilan ma’qullangan.

**O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i** A.Abdiyev

**Fakultet dekani** B.Davletov

**Kafedra mudiri** S.Bekchanova

**Tuzuvchi** S.Bekchanova



**Ilova**

| № | **Mustaqil ta'lim (MT)** | **Ajratilgan soat** |
|---|---|---|
| | **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilayotgan mavzular:** | 4 |
| 1 | Folklor va badiiy adabiyot munosabatlari. Folklorizm tushunchasi. | 4 |
| 2 | Individual ijodkorning xalq og'zaki ijodidan foydalanish mahorati | 2 |
| 3 | Mustaqillik sharofatida xalq og'zaki ijodining davlat maqomiga erishuvi | 4 |
| 4 | Akademik litseylarda xalq og'zaki ijodi fanining o'qitilishidagi o'ziga xos tamoyillar | |
| 5 | Xalq og'zaki ijodida matn an'anasi. Epik janrlarda adabiy-badiiy qoliplar va an'anaviy tasvir vositalari. | 4 |
| 6 | Xalq og'zaki ijodidagi an'anaviy obrazlar | 4 |
| 7 | Bolalar folklori materiallari asosida mazkur folklor namunalarining o'ziga xos belgilarini aniqlash | 4 |
| 8 | Xalq ertaklarini o'rgangan folkjlorshunos olimlar faoliyati | 4 |
| 9 | Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'atit turk" asaridagi folklor materiallari | 4 |
| 10 | Hodi Zarif hayoti va ijodiy faoliyati | 4 |
| 11 | Xalq og'zaki ijodi xalq qadriyatlarining tarkibiy qismi sifatida | 4 |
| 12 | Jangavor ot obrazining tarixiy asoslari va badiiy talqini | 4 |
| 13 | "Dada Qo'rqut kitobi" va "Alpomish" dostonining qiyosiy tahlili | 4 |
| 14 | Xalq qo'shiqlaridagi timsollar | 4 |
| 15 | Ertaklarda qo'shaloqlashtirish usuli | 4 |
| 16 | Paralelizm – o'zbek xalq qo'shiqlarining tarkibiy qismi sifatida | 4 |
| 17 | "Kuntug'mish" dostonida psixologik holatning ifoda etilishi | 4 |
| 18 | Alisher Navoiy ijodida folklor an'analari | 4 |
| 19 | O'zbek folklorshunosligining tadrijiy taraqqiyoti | 2 |
| 20 | To'ra Mirzayev va Mamatqul Jo'rayevlarning o'zbek folklorshunosligiga qo'shgan hissasi | 2 |
| | **Semestr bo'yicha jami:** | **72** |